
MFY raislariga sertifikatlar topshirildi

Rishton tumanidagi 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlari raislari 25-30 iyul kunlari mahalla institutini rivojlantirish, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish hamda mahalla raisining aholi muamolarini xalq etishdagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 36 soatlik o'quv kursini muvofaqiyatli tugatishgan edi.

Shu munosabat bilan bugun tumandagi Musiqa va san'at maktabi binosida MFY raislariga sertifikat topgirish tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash vazirligi bo'lim boshlig'i o'rinbosari S. Murodov, Oliy ta'lim vazirligi xodimi Z. Abduvaliev, viloyat Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash boshqarmasi boshlig'i B. Xoliqov, Rishton tumani hokimi S. Solievlar ishtirok etdilar.

Tadbir so'ngida maxalla fuqarolar yig'inlari raislariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi sertifikati, MFY raisi guvohnomasi va mahalla raisi nishonlari topshirildi.

2022-08-01 18:58:13